



## REVMATIZMI BO'LGAN BEMORLARDA KUZATILGAN PARODONTITLARNI ANTIBIOTIKLAR BILAN DAVOLASHDA IMMUNO-BIOKIMYOVIY SILJISHLAR

**Abdiraimov Azim Akbarovich**

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti  
Stomatologiya fakulteti talabasi*

**Turaqulov Otabek Murodullayevich**

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti  
Stomatologiya fakulteti talabasi*

**Shayqulov Hamza Shodievich**

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti (Ilmiy  
rahbar)*

***Annotatsiya.** Surunkali parodontitni linkomitsin yordamida davolashda terapevtik va sog'lomlashtirish tadbirlari kompleksining samaradorligini immuno-biokimyoviy siljishlar asosida o'rganildi. Bunda periferik qondagi autoantitelolarning uchrash chastotasini va ularning organlarga (jigar, buyraklar, yurak va bodomsimon bezlar to'qimalariga) titrini o'rgandildi.*

***Kalit so'zlar:** Revmatizm, parodontit, linkomitsin, immuno-biokimyoviy o'zgarishlar, autoantitelo, ASL-O.*

Surunkali bakterial infeksiyali parodontit patogenezida autointoksikatsiyaning ahamiyati haqidagi zamonaviy tushunchaga ko'ra, so'nggi yillarda linkomitsin antibiotiki katta rol o'ynaydi. Linkomitsin bilan birlamchi mavsumiy daolash va profilaktik maqsadda buyurish infektsiya o'choqlarini yo'qotish yoki faol sanitariya qilishni o'z ichiga oladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Revmatizm kasalligi bilan ro'yxatda turganlarda parodontitlarni linkomitsin yordamida davolashda terapevtik va sog'lomlashtirish tadbirlari kompleksining samaradorligini immuno-biokimyoviy siljishlar asosida o'rganish. Qonda aylanib yuradigan autoantitelolarning uchrash chastotasini va ularning organlarga (jigar, buyraklar, yurak va bodomsimon bezlar to'qimalariga) titrini A.I.Nikolaev bo'yicha "fraksion cho'ktirish" usulida, qonning oqsilli spektri, ASL-O, DFA, yordamida o'rgandik.

### **Materiallar va usullar.**

Bizning kuzatuvimizda revmatizmi bo'lgan 30 nafar surunkali parodontit bilan og'rigan bemorlar bo'lib, ulardan 7 nafarida yengil darajadagi, 17 nafari I darajali toksik-allergik va 6 nafarida II darajali toksik-allergik parodontit bo'lgan bemorlar kuzatildi. Amalga oshirilgan terapevtik va sog'lomlashtirish tadbirlari kompleksida davolash kursi - 10 kun davomida 1 ml 30% li linkomitsin gidrokslorid eritmasi 0,2



ml 2% li lidokain gidrokslorid eritmasi bilan aralashtirilib, og'iz bo'shlig'ining o'tish burmasi bo'ylab kuniga bir martadan, o'ng va chap tomonlarga 0,6 ml dan, navbat bilan yuqori va pastki jag'ga yuborilgan bemorlar organizmida immuno-biokimyoviy siljishlar o'rganildi. Bu davrda bemorlarning ovqatlanish ratsioni nazorat etilib, muvozanatli ovqatlanish, jismoniy yuklamalarni nazoratga olish, xuddi shunday og'iz bo'shlig'i-gigiena holatini yaxshilash, surunkali infektsiya o'choqlarining turli xil konservativ sanitariyasi (tishlarni tozalash, yuvish furatsillin eritmasi bilan lakunalar, naychali kvarts yordamida bodomsimon bezlarning ultrabinafsha nurlanishi kabi muolajalar ham olib borildi.

Davolash kursiga qadar barcha bemorlarda ishtahaning yomonlashishi, charchoq, holsizlik, og'iz bo'shlig'ida og'riqlar borligi shikoyatlari, 16 nafarida (53,3/5) tana vaznining kamayishi, 23 nafarida (76,6 foiz) intoksikatsiya belgilari, 19 nafarida (63,3 foiz) periferik qondagi o'zgarishlar kuzatildi. Og'iriqlar pasaygan barcha bemorlarning 14 tasi (46,6%) asl vaznidan yana 0,5-1,5 kg ortganligi aniqlandi.

Kuzatilgan bemorlar guruhida yurak to'qimalariga qarshi aylanma autoantitelolarning eng ko'p soni aniqlangan - 20 (66,7%). Jigar to'qimalariga - 9 (30%), buyrak to'qimalariga - 5 (16,7%) va bodomsimon to'qimalarga - 10 (33,3%). Davolash kursi o'tkazilgandan so'ng, autoantitelolarning titri sezilarli darajada kamaydi, yurak to'qimalarida 6 (20%), jigarda to'qimalarda - 8 (26,5%), buyrak to'qimalarida - 2 (6,5%) aniqlandi, bodomsimon bezlarga autoantitelolar aniqlanmadi.

Davolash kursi boshlanguncha bemorlarda albumin ( $51,5 \pm 0,8$ ), albumin-globulin ko'rsatkichi ( $1,06 \pm 0,02$ ), alfa ( $6,7 \pm 0,9$ ) va gamma-globulin fraktsiyasi ( $18,1 \pm 1,4$ ) biroz ko'tarilganligi kuzatilgan bo'lsa, davolash kursidan so'ng qonning oqsil spektrida o'zgarishlar qayd etilmadi.

ASL-O titri ko'rsatkichlari ham bemorlarning ahvoli yaxshilanganligini ko'rsatadi. Agar davolash kursi boshlanguncha ASL-O titri 10 nafarida 313 (34%), 8 nafarida 250 (27%), 7 nafarida 165 (23%), 4 nafarida 63 (13%), 1 nafarida 125 (3,4%) bo'lsa, davolash kursidan keyin titr 10 nafarida 63 (34%), 7 nafarida 125 (23%), 4 nafarida 165 (13%), 4 nafarida 250 (13%) va 5 nafarida 313 (18%) ni tashkil etdi.

**Xulosa:** Shunday qilib, revmatizmi bo'lgan bemorlarda kuzatilgan parodontitlarni linkomitsin bilan davolashda terapevtik samaradorlik kuzatilib bemorlar guruhida shikoyatlar, intoksikatsiya hodisalari, periferik qondagi



o'zgarishlar ijobiy tomonga o'zgarganligi, qon zardobining funksional tarkibining meyorlashganligi, periferik qondagi autoantitelolar titrining kamayganligi kuzatildi.

## Adabiyotlar.

1. Индияминов С., Расулова М. Критерии оценки степени тяжести повреждений носа //Журнал вестник врача. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 36-40.
2. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 225-235.
3. Расулова М., Индияминов С. Судебно-медицинские аспекты повреждений гортани при тупой механической травме //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2019. – №. 1 (107). – С. 159-162.
4. Хожаназарова С. Ж. MORPHOLOGICAL STATE OF THE INTRA-ORGAN VESSELS OF THE FEMALE GENERAL ORGANS UNDER CHRONIC PESTICIDE EXPOSURE //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 98-104.
5. Хожаназарова С. Ж. Вікові особливості внутрішньоорганних вен маткових труб //Вісник наукових досліджень. – 2010. – №. 3. – С. 92-93.
6. Шайкулов Ҳамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi>
7. Шайкулов Ҳамза Шодиевич, Эрматов Низом Жумакулович, Расулова Мухсина Розиковна, Шодиев Жавохир Хамзаевич, & Хожаназарова Саулехан Жубатировна. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(4), 67–75. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/691>
8. Эрматов Ж. Физическое воспитание как фактор снижения заболеваемости детей и подростков //Вестник Новосибирского государственного



- университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2011. – Т. 9. – №. 2. – С. 222-226.
9. Эрматов Ж. Физическое воспитание как фактор снижения заболеваемости детей и подростков //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2011. – Т. 9. – №. 2. – С. 222-226.
10. ERMATOV N. et al. Expression of tissue-specific genes in mice with hepatocarcinogenesis //International Journal of Pharmaceutical Research (09752366). – 2020. – Т. 12. – №. 3.

